

## IKKINCHI CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEADAGOGIK METODLARNING O'RNI

Xursandova Madina Davronovna

Stajyor –o'qituvchi O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Bugungi kunda chet tillarini samarali va tez o'qitish masalalariga kata e'tibor qaratilayotgan bo'lib, nafaqat ingliz tili, balki boshqa xorijiy tillarni zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanib o'qitish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayapti. O'zbekistonda tillarni o'qitishga bo'lgan kuchli e'tibor sababli, bugungi kunda mamlakatimizda ikki va undan ortiq xorijiy tillarni biluvchi yosh avlod shakllanmoqda. Davlat darajasidagi islohotlarning amalga oshirilishi, yosh avlodga hatto maktab yoshidan boshlab chet tillarini o'qish uchun sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi kelajagimizning poydevori bo'lgan yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bundan tashqari, o'qituvchilar ham xorijiy tillarni o'qitishning samarali usullarini tadqiq qilib, bugungi kunda o'qitish tizimiga tatbiq qilishmoqda va bu orqali yoshlarni tillarni o'rGANISH jarayonlari ancha samarali tus olmoqda. Shuningdek chet davlatlardan mutaxassislar taklif qilinib, til o'rGANUVCHILARGA ular bilan muloqat qilish va tildan kundalik hayotta ham foydalanishga imkon yaratilmoqda. Shuningdek Finlandiya tajribasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarga ingliz tilini o'qitishda o'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir talabaga o'z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, o'qitishning Finlandiya tajribasi, o'qitish usullari, tenglik, ingliz tilini o'qitish, innovatsion texnologiyalar, internet resurslar, pedagogik texnologiyalar, o'rGANISH tizimi, nutq vositalari, mustaqil fikrlash.

## THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS IN TEACHING SECOND LANGUAGE

**Abstract:** Today, great attention is being paid to the issues of effective and fast teaching of foreign languages, and great work is being done on teaching not only English, but also other foreign languages using modern pedagogical methods. Due to the strong attention paid to teaching languages in Uzbekistan, today a young generation who knows two or more foreign languages is forming in our country. The implementation of reforms at the state level, the creation of conditions and opportunities for the young generation to study foreign languages even from school age, opens wide opportunities for young people, who are the foundation of our future. In addition, teachers are also researching effective methods of teaching foreign

*languages and applying them to the teaching system today, and through this, language learning processes of young people are becoming more effective. Also, experts from foreign countries are invited, language learners are given the opportunity to communicate with them and use the language in everyday life. In teaching English to students, the task of the teacher is to create conditions for practical mastery of the language for each student, to choose such teaching methods that allow each student to demonstrate his activity and creativity. The task of the teacher is to activate the cognitive activity of the student in the process of teaching foreign languages.*

**Keywords:** Modern methods, Finnish experience of teaching, teaching methods, equality, teaching English, innovative technologies, internet resources, pedagogical technologies, learning system, speech tools, independent thinking.

## KIRISH

Bugungi kunda har bir mamlakat ta'lif tizimiga aloxida e'tibor qaratmoqda.

Hamkorlikda o'rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning o'rganish darajasini hisobga olgan holda o'qitishning individualizatsiyasi va farqlanishini ta'minlaydi. Xususan, sharq va g'arb mamlakatlarining o'qitish tizimlari o'tgan 50 yil davomida tubdan takomillashtirildi. 2018-yilda nufuzli "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishdi. Bundan tashqari, tadqiqotlar Finland bolalari dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi ham ekanligi e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani bиргина bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, Finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi. Ushbu muvaffaqiyatlar ortida chuqur ta'lif islohotlari yotibdi. Xususan, tadqiqotchilarning fikricha Finland ta'lif tizimining bu darajadagi muvaffaqiyatiga hammaga teng imkoniyatlar taqdim etuvchi ta'lif tizimida deya izohlashadi.

## FINLANDIYADA TA'LIM ISLOHOTLARI.

Ushbu davlatda amalga oshirilgan ta'lif islohotlari boshqa rivojlanayotgan davlatlar ta'lif tizimidan tubdan farq qiladi. Islohotlarning dastlabki bosqichlarida, Finlandiyada birinchi navbatda maktablarni kichik jamiyatlarga aylantirishga harakat qilindi va buni ta'milash uchun uning asosi — o'qituvchilarni tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. O'qituvchilarni tayyorlash uchun uch yillik bakalavr va ikki yillik magistratura darajasidan iborat jami besh yillik dastur joriy qilindi, o'qituvchi bo'lish

uchun magistratura darajasiga ega bo'lish majburiy qilib qo'yildi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi o'qituvchilar ilmiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Finlyandiyada ayni paytda asosiy e'tibor ta'lim sifatiga qaratilgan. Ta'lim jarayoni doimo mamlakat ishlab chiqarish sektori ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq kechadi. Ya'ni Finlyandiya ta'lim jarayonlariga yondashuvni o'zgartirish va o'quvchilarni imtihonga emas, hayotga tayyorlash evaziga ushbu ko'rsatkichlarga erishdi. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etishimiz kerak. Fin o'quvchilari xalqaro tadqiqotlardagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng oldingi o'rnlarda bormoqda. Umuman olganda, ta'lim tizimida hamma teng. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlar eng muhim omil sanaladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun maktablarda eng so'nggi texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Qisqacha qilib aytganda, Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ular mamlakatdagi mакtab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Talabalarga xorij tillarini o'qitishda quyidagi metod va usullarni taqdim qilish mumkin. Hamkorlikda o'qitish, loyiha usullari, yangi axborot texnologiyalari, Internet-resurslardan foydalanish, masofaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar shaxsiy yo'naltirilgan, differentsiatsiyalashgan ta'lim yondashuvini amalga oshirishga va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum" va "Pinboard" kabi metodlar orqali talaba-yoshlar saviyasi va chet tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishning ortib borayotganini ko`rishimiz mumkin. "Aqliy hujum" metodi o`rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab ko`rishga mo`ljallangan metod hisoblanadi. Bu usul bilan talabalarning diqqatini mashg`ulot mavzusiga qaratish uchun o'qituvchi tomonidan savol-javob tashkil qilinadi. Bu jarayonda savollar turlicha, mantiqan, qiziqarli yoki ilmiy-siyosiy jihatdan mavzuga aloqador bo'lishi lozim. Ushbu savol-javob talaba – yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin. "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, mashg`ulotlar tashkil qilinganda o`rganuvchilar turli savollarga javob izlaydilar, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, vaziyatdan qay tarzda chiqib ketish yo'llarini qidiradilar. Bu esa ularning darsga va yangi mavzuga qiziqishning ortishiga, faollashuviga olib keladi. Bu metoddan foydalilanigan paytda har bir talabaning bergen javobi inobatga olinadi. Asosiysi, har bir talabandan o`z javobini asoslashi va himoya qilishi so`raladi.

Dars samaradorligini oshirish maqsadida keying tavsiya etiladigan metod bu "Pinboard" deb nomlanuvchi usuldir. "Pinboard" so`zi inglizchadan olingan bo`lib,

“pinmustahkamlash”, “board-doska” ma`nosini anglatadi. Bu o`qitish metodining asosiy mohiyati va maqsadi shundan iboratki, unda talabalar ishtirokidagi munozara va o`quv suhbatи amaliy usul bilan bevosita bog`lanib ketadi.

Har bir o`quvchida muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O`z fikrini ravon va erkin bayon eta olish qobiliyati paydo bo`ladi, mantiqiy fikr yuritish ko`nikmaları rivojlanadi. Doskaga chiqqan paytda yoki ko`pchilik omma oldida o`z shaxsiy va dunyoviy fikrlarini ko`rsata olish qobiliyati shakllanadi. Tengdoshini eshita olish, fikrini inobatga olish, o`z fikrida qolish, boshqaning noto`g`ri javobini isbotlab berish kabi ko`nikmalar paydo bo`ladi.

Ingliz tili darslarida kompyuterni o`qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so'z boyligini o'rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o'rgatish; yozishni o'rgatish; grammatik hodisalarni ishlab chiqish. Internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotni olish uchun sharoit yaratadi: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqalar. Hozirgi vaqtda aloqa, interaktivlik, muloqotning haqiqiyligi, madaniy sharoitda tilni o'rganish, ta'limning avtonomligi va insonparvarligi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo kompetentsiyani kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga imkon beradi. Ingliz tilini o`qitishning yakuniy maqsadi ingliz tilidagi muhitda erkin yo'nalishni va turli vaziyatlarda yetarli darajada javob berish qobiliyatini o'rgatishdir, ya'ni. aloqa. Bugungi kunda internet resurslaridan foydalangan holda yangi usullar an'anaviy ingliz tilini o`qitishga qarshi. Ingliz tilida muloqotni o'rgatish uchun materialni o'rganishni rag'batlantiradigan va yetarli xulq-atvorni rivojlantiradigan haqiqiy, haqiqiy hayotiy vaziyatlarni yaratish kerak. Yangi texnologiyalar, xususan internet ushbu xatoni tuzatishga harakat qilmoqda. Kommunikativ yondashuv - bu materialni ongli ravishda anglashga va u bilan ishslash usullariga, muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni yaratishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiya. Foydalanuvchi uchun internetda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish ayniqsa qiyin emas. Kommunikativ vazifa talabalarga muammo yoki savolni muhokama qilish uchun taklif qilishi kerak, talabalar nafaqat ma'lumot almashadilar, balki ularni baholaydilar.

Ushbu yondashuvni o`quv faoliyatining boshqa turlaridan ajratib olishga imkon beradigan asosiy mezon - talabalar o`z fikrlarini shakllantirish uchun mustaqil ravishda lisoniy birliklarni tanlashidir. Kommunikativ yondashuvda internetdan foydalanish juda yaxshi rag'batlantiriladi: uning maqsadi o`quvchilarga bilim va tajribalarini to'plash va kengaytirish orqali chet tilini o'rganishga qiziqishdir.

Internet-resurslardan foydalangan holda chet tillarini o'rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishdir, bu odatda metodikada interaktivlik deb nomlanadi. Interaktivlik - bu "nutq vositalari yordamida

kommunikativ maqsad va natijadagi sa'yharakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish". Haqiqiy tilni o'rgatish orqali internet nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek lug'at va grammatikani o'rgatishda samimiy qiziqish va shuning uchun samaradorlikni ta'minlaydi. Interaktivlik nafaqat hayotdan real vaziyatlarni yaratibgina qolmay, balki talabalarni chet tilida ularga munosib javob berishga majbur qiladi.

Ilg`or metodlar chet tilini puxta o`zlashtirishda kompos vazifasini o`taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanishdir. Rolli o`yinlar bu real hayotimizdagи turli situasiyalarni chet tili o`rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi. Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo`ldan o`tayotib yo'l qoidasiga rioya qilmagan bolani ya`ni o`tish bo`lmagan yo`lni kesib o`tadi. 3-holat. Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situasiyalar bo`yicha sahna ko`rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o`yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o`z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o`yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o`rganadilar, o`z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o`rganadilar. Rolli o`yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to`g`irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to`g`irlash ham tilni o`rganishga yordam beradi va talabalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatadi. Dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanish bir vaqtning o`zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta`minlaydi. Bundan tashqari rolli o`yinlar talabalarning chet tilini o`rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo`lib inglizcha, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o`rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o`rganish, tahlil qilish asosida o`qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o`yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so`zlar ro`yxat asosida beriladi. Ular biror bir so`z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so`zlarni qolgan guruh a`zolariga tushuntirishlari kerak. “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o`qib beriladi qanday yakun topishi o`quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o`quvchilarga topishmoqlar o`rgatish Ingliz tilini o`rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o`zlariga notanish bo`lgan so`zlarni o`rganadilar va o`ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o`tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o`quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o`yinlardan foydalanish; – “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo`lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo`ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o`quvchilarning og`zaki nutqini

o'stirishda yordam beradi; – “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqt ni tejaydi. Ko'rib chiqqnimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lif jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

Bugungi kunda ta'lif tizimiga ko`plab zamonaviy texnologiyalar va metodlar kirib kelmoqda. Ammo, ulardan qay tarzda, qaysi paytda, qanday mavzuda foydalanish bu o'rgatuvchining zukkoligi, izlanuvchanligiga, dars - mashg`ulotlarni ham qiziqarli, ham ilmiy ma'lumotga boy tarzda tashkil etishiga bog`liq deb o`ylayman.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Talabalarga yo'naltirilgan ta'lifni ta'minlaydigan texnologiyalardan biri bu ijodkorlik, bilim faoliyati va mustaqillikni rivojlantirish usuli sifatida loyiha uslubidir. Usullarning tipologiyasi xilma-xil. Innovatsion usullarni monoproyektlar, jamoaviy, og'zaki nutq, aniq, yozma va internet-loyihalarga bo'linishi mumkin. Haqiqiy amaliyotda ko'pincha tadqiqot loyihalari, ijodiy, amaliyotga yo'naltirilgan va informatsion belgilar mavjud bo'lgan aralash loyihalar bilan shug'ullanish kerak. Zamonaviy texnologiyalari tilni o'rganishda ko'p qirrali yondashuv bo'lib, o'qish, tinglash, gapishtirish va grammatikani qamrab oladi. Innovatsion usuli talabalarning faol mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi va ularni birlashtirishga ishlari uchun shug'ullanish kerak. Bunday usullarning o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullarning o'quvchida bilimga ishtiyooq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lif jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lif tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yay ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Online lug'at "Macmillan dictionary". – Elektron matn. – URL:<https://www.macmillandictionary.com/dictionary/british/globalization>.
2. Pedagogikada o'qitish metodlari: kontseptsiyani oshkor qilish. – Elektronmatn.– URL:<https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/teoriyaobuchenija/metodobuchenija-v-pedagogike/>
3. Chet tillarni o`qitish metodikasi ilmiy soha sifatida – Elektronmatn.– URL:[https://studme.org/167135/pedagogika/metodika\\_obucheniya\\_inostrannym\\_yazykam\\_nauchnaya\\_oblstan](https://studme.org/167135/pedagogika/metodika_obucheniya_inostrannym_yazykam_nauchnaya_oblstan)
4. Borytko N. M. O'qitishning nazariyasi. – 2006 – Bet. 3. – Elektronmatn.– URL:[http://window.edu.ru/resource/325/63325/files/Teoriya\\_obucheniya.pdf](http://window.edu.ru/resource/325/63325/files/Teoriya_obucheniya.pdf)
5. Bekarevich, T. I. "Yondashuv" tushunchasi boshlang'ich va o'rta maktablardachettillarini o'qitishning nazariy tadqiqotlar metodikasida. 2012 Betlar. 314–315.–Elektron matn. – URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/21/1507/>
6. Chet tillarni fan sifatida o'qitish metodikasi. Tadqiqot predmeti vausullari.– Elektron matn. – URL: <https://lektsii.org/18-27322.html>
7. Nurhayati Lusi, Ling M .App., Supriyanti Nury, Triastuti M. A. Anita.– Teaching English as Foreign Language Methodology (TESOL). –2008–Betlar. 26– 28.
8. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2021
9. Otaboyeva, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi. Молодой ученый. 2017. 36-37.
10. Parmonov, A. A. Chet tilni o'rganishda axborot texnologiyalarining ahamiyati. Молодой ученый. 2017. 39-40.
11. Xorijiy tillarni o'rghanish tarixi, bugun va istiqboli. Hududiy ilmiy-amaliy anjumanlari, Andijon, 2016-yil.
12. Chet tillarni o`qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2007-yil.